

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TALABALARNING O'ZLASHTIRISH SAVIYASINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH ASOSLARI

Yusupov Kirmon Yasinovich

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi,

Jizzax, O'zbekiston.

e-mail: kirmon@jspi.uz

Аннотация. Ushbu ilmiy uslubiy ishda texnologiya darslarida talabalarning o'quv topshiriqlarini bajarish vaqtida tayyorlagan ijodiy ishlarini tekshirish va baholash mezonlari keltiriladi.

Калит so'zlar. Bilim, ko'nikma, malaka, talabalarning o'zlashtirgan bilimlari, egallagan ko'nikma va malakalar, tekshirish, baholash, kasbkorlik tayyorgarlik.

Аннотация. В данном научно-методические работы приведется критерия провеки и оценивания творческий работы подготовлено во время выполнения учебный задание студентов в занятиях обучения технология.

Ключевые слова: Знания, навыки, квалификация, усвоенной знания студентов, овладевшей навыки и квалификация, проверки, оценивания, профессиональный подготовка.

Talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholash o'quv jarayonini sifatli asosda olib borishda muhim rol o'ynaydi. Bu muhimlikning ahamiyati shundaki, birinchidan, talaba va o'quvchilar dars jarayonida dars materiallarini qanchalik darajada tushunganlari, ular bo'yicha qanchalik miqdorda o'zlariga o'zlashtirib olganliklari, keyingi dars jarayonlarida qanday o'zlashtirish kerakligi bo'yicha o'zlariga xulosa oladilar. Ikkinchidan, dars mashg'ulotlarini olib borayotgan o'qituvchilar o'zlarining o'rgatish mehnatini qanchalik darajada samara berganliklarini, yo'l qo'ygan kamchiliklari, keyingi dars mashg'ulotlarida nimalarga e'tibor qaratish kerakligini bilib olishga yo'llanma bo'ladi. Shu boisdan ham o'quv jarayonini o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholashsiz olib borish yaxshi natija bermaydi, aniqrog'i o'quv jarayonini o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholashsiz olib borish mumkin emas. Uchinchidan, talabalarni o'quv davomida o'zlashtirgan bilimlarini miqdoriy sifatini aniqlash va ularga o'quv mobaynida o'zlashtirish xulosasini berish va shu asosda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini bo'yicha dalillar asosida hujjat berish mumkin bo'ladi.

Talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholash bo'yicha bir qancha nizomlar mavjud. Reyting tizimining asosiy vazifalari talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish; talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda

baholashni ta'minlash; fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish; talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish; talabalar bilimni xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish; talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluk siz tayyorgarligini ta'minlash; o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratishdan iborat.

Fanlar bo'yicha talabalar bilimni semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun — talabalarning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli bo'lgan, joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin bo'lgan joriy nazorat; semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabani bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblangan (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda soni belgilanadigan oraliq nazorat; semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli bo'lgan, tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladigan yakuniy nazorat turlari bo'ladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi. Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi. O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati

natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi. Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Demak, Talaba va o'quvchilarni o'zlashtirish jarayonlari ta'lim jarayonini ajralmas qismi sifatida albatta bo'lishi kerak, sababi busiz o'quvchi ham o'qituvchi ham o'quv jarayonida yaxshi samaralarga erisha olmaydi.

Talabalar o'zlashtirishini nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Fan va texnikaning taraqqiyoti kishilarning umum ta'limiy va kasbkorlik tayyorgarligiga tobora yuksak talablar qo'ymoqda. Hozir ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etishda faqat bilimlarni o'zlashtirish hamda amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishni ko'zda tutish mumkin emas. Ta'lim jarayonida bilim larni mustaqil holda to'ldirish va ularni nazariy hamda amaliy vazifalarni hal qilishda qo'llash ehtiyoji va ko'nikmalarini shakllantirish ham nihoyatda zarurdir.

Bilimlar, umummehnat ko'nikmalari va malakalarini tekshirish o'quvchilarga mehnat ta'limi berish, ularni tarbiyalash sifatini oshirishning ta'limi natijalarini o'z vaqtida tekshirish o'quvchilarda bilimlar va ko'nikmalari sifati uchun javobgarlik hissini rivojlantirishga yordam beradi, ularning intizomini yaxshilaydi va o'zlariga nisbatan talabchan bo'lishni urgatadi, ishda kamchiliklarga yo'l qo'y maslikka va o'zini doimiy ravishda kamol toptirib borishga undaydi. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish o'quvchilar kasbkorlik tayyorgarligi darajasini aniqlashga yordam beribgina qolmasdan, shu bilan birga yana bir muhim vazifa ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va mehnat ko'nikma hamda malakalarini mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

O'qituvchining muhim didaktik vazifasi o'quvchilarning dastur materialini to'la o'zlashtirishlariga erishishdan iboratdir. Ta'limning natijasi to'laqonli bilimlar bo'lishi lozim. Bunday bilimlar talabalarda mumkin qadar yuksak saviyada tarkib topgan alohida sifatli bilim va ko'nikmalar majmuidir. Talabalarning o'zlariga xos va psixologik xususiyatlari har xildir. Shuning uchun ulardagi bilimlarning sifati ham turlicha bo'ladi. Masalan, xotirasi kuchli talabalar dastur materialini darrov eslab qoladilar, ya'ni ularda bilimlarning to'laligi muvaffaqiyatli shakllanadi, lekin bilimlarning mustahkamligi sekin shakllanishi mumkin. Bundan tashqari bilimlarning tizimlilikiga sekin shakllanadigan talabalar ham bor. Shuning uchun o'qituvchi auditoriyadagi bir talabaning o'ziga xos va psixologik xususiyatlarini bilishi shart. Busiz talabalarni to'laqonli bilimlar bilan qurollantirib bo'lmaydi. O'quv faniga qiziqish, amaliy vazifalarni qilish yoki boshqa fanlar ga doir materiallarni muvaffaqiyatli o'rganish uchun dastur materialini o'zlashtirishi zarurligini anglash, talabalarning yangi materialni o'zlashtirishga tayyorligi, mashg'u lotning amaliy yunalishi, ta'lim natijalarini nazorat qilishning ob'ektivligi, materialning hajmi va murakkabligi uni o'rganish uchun ajratilgan vaqtga muvofiqligi talabalarda sifatli bilimlar shakllanishining muvofiq shartlaridir.

Texnologiya ta'limi bo'yicha talabalar o'zlashtirishini nazorat qilishni tashkil etishda bilimlarning chuqurligi, to'laligi, operativligi, aniqligi, umumlashganligi, kengligi, tizimlilikiga, ongliligi va mustahkamligi kabi sifatlarini ma'lum darajada tekshirish va hisobga olish zarur. Texnologiya ta'limi bo'yicha talabalar bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholashning asosiy ob'ektlari: bilim, mehnatni rejalashtirish, ish o'rnini tashkil qilish, xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari, mehnatning usullari va jarayoni, amaliy ishda bilimlardan foydalanish, mehnat topshirig'ini bajarish sifati, chizmalarni o'qish, konstruksiyalash, modellash tirish, modelni yig'ish, mahsulot va materiallarga turli xilda ishlov berish, elektr zanjirni yig'ish ko'nikmalaridan; shaxsning ma'naviy-irodaviy xususiyatlari (mehnatsevarlik, mustaqillik va hokazolar)dan, sarflangan ish vaqtining miqdoridan iboratdir.

Texnologiya ta'limi mobaynida o'qituvchi o'quvchilar mehnati jarayoni va uning natijalarini tekshirishda ishlab chiqilgan baho normalaridan foydalanib, eng avvalo ulardagi bilim va ko'nikmalarining sifat saviyasini, ular ishning usullari va yo'llarini qanchalik o'zlashtirganini, ish vaqti normasini qanday bajargani va hokazolarni aniqlashi kerak.

Bilimlarni, ijodiy ishlarning, yozma-grafik topshiriqlarning va laboratoriya amaliy ishlarning bajarilishini tekshirish bo'yicha baho normalari talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan asosiy talablar ro'yxatidan iborat bo'lib,

mana shu talablarga muayyan darajada rioya qilingani uchun «5», «4» va hokazo baholar qo'yiladi.

Texnologiya ta'limida bundan tashqari, o'qituvchilarga Reyting tomonidan ishlab chiqilgan o'zlashtirishni tekshirishni "reyting tizimi" tavsiya qilinadi. Bunda o'zlashtirish natijalari ma'lum bir qabul qilingan ballar bilan baholanib, so'ngra umumiy natijalar baholarga aylantiriladi. Mazkur normalarida tekshirish ning asosiy ob'ektlari hisobga olingan va bular o'qituvchiga talabalar mehnatini umumiy yo'sinda, yakka tartibda nazorat qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan baho normalarining muhim xususiyati shuki, ular o'qituvchilar, ishlab chaqarish ustalarning o'zi emas, balki talabalar ham tushunishiga va foydalanishiga mullangan. Talabalar baho normasini bilishlari, tushunishlari, ta'limiy va amaliy ishlarda mazkur normalarning talablariga iloji boricha rioya qilishga intilish lari kerak. Agar talaba o'qituvchining mehnat natijalariga qo'yiladigan talablarini oldindan bilsa, unga guruh jurnalidagi baho nima uchun qo'yilganini har gal tushuntirib o'tirish zarur bo'lmaydi.

Talabalarga texnologiya ta'limi yo'nalish fanlarini o'qitishda nazariy va texnik-texnologik bilimlar o'rgatiladiki, ulardan foydalanish talabalarning sifatli va unumli ishlashiga yordam beradi. Talabalardagi bilimlar sifatining darajasini faqat talabalar mehnatining natijalariga qarab haqqoniy va aniq tekshirish mumkin. Lekin bu so'z o'qituvchi talabalarning bilimlarini amaliy ish boshlanmasdan oldin tekshirmasligi kerak, - deganimiz emas. Gap shundaki, talabalar texnologiya ta'limi dasturida ifodalangan bilimlardan amaliy ishni boshlashda, jumladan, mehnatni to'g'ri rejalashtirishda, zagotovkalarining o'lchamlarini hisoblashda, parralanadigan teshiklar diametrini belgilashda foydalanishlari zarur. Buning uchun talabalarning bilimlarini differensial yo'sinda baholash, ya'ni dastur materialining to'la o'zlashtirilganini, o'z bilimlarini so'z bilan bayon etish ko'nikmasini alohida baholash lozim. Ana shularni hisobga olib quyidagi «baho normalari»da sifat va miqdor ko'rsatkichlari beriladi. Sifat va miqdor mezonlaridan foydalanish o'qituvchilarning o'zlashtirishini haqqoniy baholash imkonini beradi. O'rtacha ko'rsatkichlarga qarab esa o'qituvchi ishining ayrim jihatlari haqida fikr yuritish mumkin. Bilimlar sifatini tekshirish bo'yicha baho normalarini ko'rsatmali qo'llanma sifatida ishlab ustaxonaga ilib qo'yish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ko'rsatmali qo'llanmaning oxirida izoh o'rnida dastur materialini o'rganishda texnik mehnatga doir so'zlar va tu shunchalarni puxta eslab qolish, og'izaki javobda fikrlarni «texnika tili» bilan ifodalash, ya'ni texnikaga doir so'zlar va tushunchalarni to'g'ri qo'llash hamda talaffuz etish, laboratoriya-amaliy ishlarni, yozma-grafik topshiriqlarni va amaliy ishlarni sifatli bajarish uchun bilimlar kerakligi kabi bandlarni yozib qo'yish lozim.

Maktablarda, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlarida anchagina ixtisoslik va mutaxassliklar bo'yicha ta'lim beriladi. Lekin ularda ayrim hollarda yangi ixtisosliklar kiritilganda hozircha ilmiy jihatdan asoslangan va amalda tekshirilgan «Baho normalari» yo'qligi uchun o'qituvchilar o'zlari «baho normalarini ishlab chiqishlari zarur. Talabalarning nazariy texnika va texnologiyaga doir bilimlari hamda ko'nikmalari bo'yicha baho normalarini ishlab chiqishda texnologiyaga, texnikaga, iqtisodiyot va mehnatni hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni; texnologiyaga va konstruktorlikka doir hujjatlarni bilishni (tushunishni va zarur bo'lsa, tahlil qilishni): asosiy texnologik operatsiyalar va texnologik jarayonlarni bilishni; navbatdagi ishni rejalashtirishda mustaqillikdan, ish o'rnini ratsional tashkil qilish; tekshirish, sozlash, rostlashdan (masalan, dastgohni sozligini tekshirishdan, moslama yoki qolipni sozlashdan, tirqish va hokazolarni rostlashdan); mustaqil holda boshqarish, ishlash, qayta tiklash, tanlash va hokazolardan; tanlashni asoslash; ishlov rejimi, bo'yoqning rangi, ishlov usullari, texnologik operatsiyalari va hokozolar nima uchun shunday tanlanganini isbotlashdan; asosiy asboblarni (qirqish, o'lchash, tekshirish moslamalarini, priborlar, agregatlar, mashinalarni, ularning vazifasini, ishlash prinsipini, boshqarilishi, tuzatilishi va hokazolarni) bilishni; xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalarini bilishni; asosiy adabiy manbalarni, ta'limning texnik vositalarini va ulardan foydalanishni bilishni; har xil o'quv fanlari (matematika, kimyo, fizika va hokozolar) bo'yicha tegishli ma'lumotlardan foydalana olish ko'nikmasini; ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni hal qilish (ashyolarning zarurligini, ularni ishlash rejimlarini hisoblash va hokozolar) uchun turli bilimlar dan mustaqil foydalanishni; buyumlar tayyorlashning yoki qandaydir ishni bajarish ning sifatini nazorat qilish ko'nikmasini bo'yicha ishlab chilib taklif qilinayotgan umumiy mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, bilimlar, umummehnat ko'nikmalari va malakalarini tekshirish talabalarga ta'limi-tarbiya berish sifatini oshirishning natijalarini o'z vaqtida tekshirish talabalarda bilimlar va ko'nikmalari sifati uchun javobgarlik hissini rivojlantirishga yordam beradi, ishda kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka va o'zini doimiy ravishda kamol toptirib borishga undaydi. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikma hamda malakalarini mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadaliyev.S.Y Bolajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik pedagogik faoliyatga moslashishning ilmiy - metodik asoslari. Dissertatsiya-

Toshkent. 2007 y. 140 bet.

2. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. Toshkent: «FAN», 2005. 130 b.

3. M.Z.Murtozayev, M.Q.Muxliboev, Yuldoshev X.D., A.A. Qushaqov, A.G.Axmedova. Texnologiya ta'limini o'qitish uslubi. Xrestomatitsiya shaklidagi o'quv qo'llanma. –T.: «Fan va texnologiya», 2017, 99 bet.